
Farg'ona shahrida zamonaviy xususiy bog'chacha ochildi

Bugun, 1 oktyabr - O'qituvchi va murabbiylar kuni bayramida Farg'ona shahrida 75 o'rinli bog'cha faoliyatini boshladi. "Sohibkor" va "Oqariq" mahalla fuqarolar yig'inlarining tutash qismida ochilgan "Kids Univer" nomli xususiy bog'chaning bugun ochilish marosimi o'tkazildi.

Tantanali ochilish marosimida Farg'ona shahar hokimi Vosiljon Nazarov, shahar prokurori Dilmurodjon Qobulov va keng jamoatchilik vakillari ishtirok etishdi. Tadbirda so'zga chiqqan shahar hokimi yig'ilganlarni bayram bilan samimiy muborakbod etdi. Shuningdek, ikki mahalla ahli uchun ham haqiqiy bayram sovg'asi bo'lganligi ta'kidlandi. Sharaf lentasi kesilib, bolajonlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishildi.

Shaxloxon Shabirova rahbarligidagi xususiy bog'chada 10 ta yangi ish o'rinlari yaratildi. Mashg'ulotlar rus tilida olib borilishi belgilangan. Bolalarga ingliz tilidan ham boshlang'ich saboqlarning berilishi ota-onalarda katta qiziqish uyg'otdi. Mental arifmetika, sport va boshqa to'garaklar bolajonlarning ham aqlan, ham jismonan rivojlanishlariga ko'mak beradi.

Muassasa rahbarining ta'kidlashicha, "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari"da bo'lgan oilalarning 10 nafar farzandlarini bepul tahsil olishlari uchun ham imkoniyat yaratilgan.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2022-10-01 20:47:05